

## ONA TILI DARSLARIDA “KELISHIKLAR” MAVZUSINI O‘QITISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH

*Xujabekoba Zarnigor Asomutdinovna*

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti*

**Annotatsiya.** Bugungi kunda dars jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanib, samarali natijalarga erishish maqsad qilingan. Darsning texnik vositalar, metodlar va ko‘rgazmalar bilan tashkil etilishi o‘quvchida mavzu yuzasidan mustahkam bilimga ega bo‘lish, mustaqil fikrini bayon eta olish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Maqolada kelishiklar va ularni o‘quvchilarga tushuntirishda foydalanish mumkin bo‘lgan ilg‘or metodlar va grafik organayzerlar tavsiya etilgan.

**Kalit so‘zlar:** kelishiklar, turlanish, ta‘lim texnologiyasi, metod, grafik organayzer.

**Abstract.** Today the teaching process is aimed at achieving effective results using advanced pedagogical technologies. The organization of the lesson with technical means, methods and exhibitions develops in the student a solid knowledge of the topic, the ability to express independent opinions. The article suggests advanced techniques and graphic organizers that can be used to explain the agreements and them to the readers.

**Keywords:** agreements, variations, variables, learning technology, method, graphic organizer

Hozirgi kunda maktab o‘quvchilariga ona tili fanidan ta‘lim berishda zamonaviy, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish dolzarb maslala hisoblanadi. Eski an‘anaviy metodlardan biroz chekinib, yangi interfaol usullar yordamida o‘qitish o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq o‘rganishiga yordam beradi. Chunki, ta‘limda zamonaviy, turli yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan darslar ta‘lim jarayonining sifatliligini ta‘minlaydi, o‘quvchilarning mavzuni oson o‘zlashtirishiga, kreativ fikrlashga undaydi. Shuningdek, fan o‘qituvchisining bir vaqtning o‘zida bir nechta o‘quvchilarni baholashga ulgurishida muhim ahamiyat kasb etadi va o‘quvchilarning fanga qiziqishini tobora ortiradi. Zero, bugungi taraqqiyot har bir o‘qituvchidan o‘ziga xos ijodkorlikni, malaka va tajribani taqozo etmoqda. Bu, o‘z navbatida, o‘qituvchilar zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi. XXI asr muallimi yuksak taraqqiy etib borayotgan fan-texnika yutuqlariga har doim hozirjavob bo‘lishi, ulardan o‘z darslarida samarali foydalana olish kerak. Pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan darslar o‘quvchilarda o‘z fikrlarini tanqidiy va tahliliy bayon eta olish imkonini beradi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlarni ona tili darslarida kelishik kategoriyasini o‘qitishda grafik organayzerlardan foydalanish samaradorligini quyidagi tadqiqotimizda yoritishga harakat qildik.

Kelishik – ot yoki otlashgan so‘zning boshqa so‘zlar bilan aloqasini ko‘rsatuvchi grammatik shakl. Otlarning kelishik qo‘shimchalarini olib o‘zgarishi

turlanish deyiladi. Shu boisdan kelishik qo'shimchalari turlovchi qo'shimchalardir. Kelishikli so'zning gapda biror gap bo'lagi vazifasida kelishi qaysi kelishik shaklida qo'llanishi bilan bog'liq. Kelishiklar miqdori turli tilda turlicha. O'zbek tilida 6 ta kelishik bo'lib, ular bosh (shaklsiz), qaratqich (-ning), tushum (-ni), jo'nalish (-ga,-ka,-qa), o'rin-payt (-da), chiqish (-dan) kelishiklaridan iborat. Shuningdek, 2017 yil nashr qilingan 7-sinf ona tili darsligida "Ot, olmosh va otlashgan so'zlarga qo'shib, ularni boshqa so'zlarga bog'lash uchun xizmat qiluvchi grammatik shakllar tizimi kelishik shakllari sanaladi. Kelishik shakllari doimo tobe so'zga qo'shiladi. O'zbek tilida oltita kelishik mavjud bo'lib, ularning har qaysisining o'z nomi va shakli bor." [3.54] qoidasi berilgan. Shu qoidalar asosida darslarda kelishiklarni o'quvchilarga quyidagicha taqdim etsak, mavzuning yanada tushunarliroq bo'lishini ta'minlaydi.

*Kelishik shakllari*

Kelishiklar	So'roqlari	Qo'shimchalari
Bosh kelishik	Kim? Nima?	
Qaratqich kelishigi	Kimning? Nimaning?	-ning
Tushum kelishigi	Kimni? Nimani?	-ni
Jo'nalish kelishigi	Kimga? Nimaga?	-ga, -ka, -qa
O'rin-payt kelishigi	Kimda? Nimada?	-da
Chiqish kelishigi	Kimdan? Nimadan?	-dan

Biz quyida ushbu mavzuni o'qitishda qo'l keladigan grafik organayzerlarning bir nechtasini ko'rib o'tamiz.

Organayzer inglizcha "tashkil etuvchi, grafik tashkil etuvchi" ma'nosini bildiradi. Grafik tashkil etuvchi – fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etish vositasi. Grafik tashkil etuvchilarga "Insert", "Klaster", "Konseptual jadval", "Toifalash jadval", "BBB", "T-jadvali", "Venn diagrammasi", "SWOT-tahlil jadvali", sxema va diagrammalar: "Nima uchun?", "Qanday?", "Baliq skeleti" kabilar kiradi.

**Insert jadvali.** "Insert" so'zi inglizcha joylashtirmoq, belgi qo'ymoq ma'nosini beradi. Ushbu metoddan kelishiklarni o'qitishda quyidagicha foydalanish mumkin.

V	+	-	?
O'zbek tilida kelishiklar soni 6 ta ekanligi	Aksariyat kelishik shakllari belgisi va belgisiz qo'llana olishi	Jo'nalish kelishigi belgisiz qo'llanishi	Kelishiklar soni 6 tadan ko'p yoki kam bo'lishi mumkinligi

*"Konseptual jadval" asosida yoritilishi*

Kelishiklar	Qo'shimchasi	Kelishikdagi so'z so'roqlari	Qo'llanilishi
Bosh kelishik	-	Kim? Nima? Qayer?	
Qaratqich kelishigi	-ning	Kimning? Nimaning? Qayerning?	
Tushum kelishigi	-ni	Kimni? Nimani?	

		Qayerni?	
Jo'nalish kelishigi	-ga	Kimga? Nimaga? Qayerga?	
O'rin-payt kelishigi	-da	Kimda? Nimada? Qayerda?	
Chiqish kelishigi	-dan	Kimdan? Nimadan? Qayerdan?	

O'quvchilar kelishik shakllari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lgach, "Konseptual jadval"ni yuqorida ko'rsatilgan shaklda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Natija: o'quvchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlashi, ma'lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

*"Lisoniy qolip" metodi*

So'zlar	-ning	-ni	-ga	-da	-dan	Bog'langan so'zlar
Men	+					kitobim
Osmon			+			qaradi
She'r		+				yod oldi
Yo'l					+	o'tdi
Maktabda				+		ishlaydi
Kuz	+					ziynati
Telefon				+		gaplashdi

O'quvchilar birinchi ustunda berilgan so'zlarni o'zi bog'langan so'z (7-ustun) bilan birgalikda talaffuz etadi. Va bu jarayonda qaysi kelishik qo'shimchasidan foydalanish mumkiligini "+" belgisi orqali belgilaydi. Natija: Oquvchilarni mantiqiy fikrlashga undaydi, topqirlik, savodxonlik kabi qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Demak, ta'lim har doim takomil va yangilanishga mushtoqdir. Shunga muvofiq mumkin qadar ta'limning yangi usullarida izlanish talab etiladi. Chunki o'quvchilarga ham bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi, ularni zeriktiradi. Natijada o'quvchi darsni yaxshi o'zlashtira olmaydi. Har bir usuldagi darslar ikki-uch marta o'tilganda o'zini oqlaydi. Me'yorida oshmasligi, o'quvchilarni zeriktirmaslik uchun usullarning turlicha bo'lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi. Kelishiklar mavzusini boshqa interfaol usullar yordamida ham olib borsa bo'ladi, bu haqida keying tadqiqotlarimizda yoritishga harakat qilamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Shofqorov, A.M. O'zbek tili darslarida interfaol usullarning ahamiyati. (2020) *Science and Edukation, 1(Spekial Issue 2)*.
2. Nurmonov A. va boshqalar. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. Toshkent, 2001-yil.
3. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan 4-nashri. TOSHKENT «MA'NAVIYAT» 2017. 54 b.